



NAVOIY VILOYATI G‘OZG‘ON SHAHAR HOKIMINING QARORI

2026-yil 3-fevral

7-5-210-Q/26

G‘ozg‘on shahar hokimligi

G‘ozg‘on shahar hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli Qarori hamda 2025-yil 19-iyundagi “Davlat fuqarolik xizmatini yangi yondashuvlar asosida tashkil etish hamda professional va natijadorlikka yo‘naltirilgan davlat xizmatchilari korpusini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-95-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-189-sonli Farmoni, 2022-yil 22-avgustdagi “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-357-sonli Qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 22, 27-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. G‘ozg‘on shahar hokimligi boshqaruv apparatining tuzilmasida mavjud bo‘lgan “G‘ozg‘on shahar hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari” lavozimi “G‘ozg‘on shahar hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari - shahar obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i” lavozimiga o‘zgartirilsin.

2. G‘ozg‘on shahar hokimligi tuzilmasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-189-son qaroriga

asosan, “Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha hokim maslahatchisi” lavozimi tashkil etilsin.

3. G‘ozg‘on shahar hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan G‘ozg‘on shahar hokimining 2025-yil 24-dekabrda 124-5-210-Q/25-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Ushbu qaror xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar Kengashining navbatdagi sessiyasi kun tartibiga tasdiqlash uchun kiritilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari M.Istamov zimmasiga yuklansin.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-189-sonli Farmoni, 2025-yil 26-dekabrda “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli Qarori.


Shahar hokimi



N.Jo‘rayev

G'ozg'on shahar hokimining
2026-yil 3-fevraldagi
7-5-210-Q/26-son qaroriga
1-ilova

G'ozg'on shahar hokimligi boshqaruv apparatining TUZILMASI



1. Boshqaruv xodimlarining cheklangan soni - 17 nafar.
2. * Shahar hokimligi boshqaruv apparati shtat birliklari soniga qo'shilmaydi.

3. Mahallalarga biriktirilgan hokim yordamchilari soni - **4** nafar.